

PEDAGOGIK MAHORAT

2
2024



MUNDARIJA

No	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	ISMAYLOVA Ra'no Nurayevna	O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari	7
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
2.	OLIMOV Shirinboy Sharofovich, SAMIYEVA Shaxnoz Xikmatovna	Talabalarda kreativlik va yangicha dunyoqarashni rivojlantirish	12
3.	ABDULLAYEV Amrullo Nassulloyevich	Harbiy ta’lim muassasalarida talabalarning pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning psixologik determinatlari	17
4.	AGAMURODOV Sarvar Istamovich	Formation of professional self-conception, entrepreneurial skills in adolescents and factors affecting this process	22
5.	ASRANBAYEVA Munojatxon Halimjanovna	O’qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishda kasbiy refleksiyaning o’rni	26
6.	ATADJANOV Mamirjon Yusupovich	Shaxsiy hamda ijtimoiy darajadagi tahdidlardan himoya mexanizmlari	32
7.	ATAVULLAYEVA Maxbuba Qobilovna	Psychological determinants of the formation of socio-psychological competence of primary school teachers	37
8.	BADRITDINOVA Madina Baxromovna	O’smirlar intellektual rivojlanishiga innovatsion yondashuv orqali ijtimoiy qo’rquvni bartaraf etish usullari	41
9.	HOTAMOVA Maftuna Madatovna	Ta’lim rivojlanishining hozirgi sharoitdagi pedagogning innovatsion faoliyati	45
10.	IBROHIMOVA Sunbula Asilbek qizi	Ta’lim samaradorligini oshirishda rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish	50
11.	IMOMOVA Shafoat Mahmudovna	Pedagogik texnika – kasbiy kompetensiyalarni rivojlanishning asosiy omili sifatida	56
12.	ISMOILOVA Mahsuma Narziqulovna	Ta’lim jarayonida amaliy mashg’ulotlarni mobil texnologiyalar orqali tashkil etishning afzalliklari	60
13.	JURAYEV Farxod Niyozovich	Dual ta’lim: mavzuga yana bir nazar	65
14.	KURBANOVA Gulnoz Negmatovna	Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalarining tafakkurini rivojlanishda operativ-mantiqiy tuzilmaning o’rni	70
15.	MARDONOVA Saodat Muzaffarovna	Talabalarning sog’lom turmush tarziga bo‘lgan “talab”ni yanada shakllantirish pedagogik modeli	74
16.	NARMURADOVA Rayhon Uktamovna	Oilaviy nizolarning fenomenologiyasi: mohiyati, aniqlovchi xususiyatlar	79
17.	HAYDAROV Orifjon Rustamovich	Pedagogikada zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanishning kreativ usuli	84
18.	QAZOQOV Sodiq Ramazonovich	Talabalarda do’stona munosabatlari va ijtimoiy hamkorlik ko’nikmalarini shakllantirishda ishchan o’yinlarning didaktik ahamiyati	88
19.	QURBONBOYEV Azimbek Nazirboy o‘g‘li	Talabalarda o‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darjasini o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatining asosi sifatida	93
20.	RO’ZMETOVA Zulfiya Xayitboevna	Texnologiya mashg’ulotlarini innovatsion texnologiyalar orqali tashkil qilish	97

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

TALABALARDA KREATIVLIK VA YANGICHA DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH

*Olimov Shirinboy Sharofovich,
Buxoro davlat universiteti professori, p.f.d..
Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d (PhD)*

Ushbu maqolada mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda dunyoqarashini rivojlanadirish to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shuningdek, yoshlarda kreativ g‘oyalar va yangicha dunyoqarashni takomillashtirish, ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi ilmiy nazariyalarning mazmun - mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: dunyoqarash, tafakkur, ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, kreativlik, ta’lim, bilim, taraqqiyot, estetik ong, estetik did, o‘quv jarayoni, inson kapitali, intellekt.

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОСТИ И НОВОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

В данной статье рассматривается вопрос воспитания здорового и всесторонне развитого поколения в нашей стране, реализации творческого и интеллектуального потенциала, развития мировоззрения молодёжи. Также приводится содержание и сущность научных теорий по совершенствованию творческих идей и нового мировоззрения у молодёжи, формированию творческой личности, созданию творческой продукции осуществляются взаимосовместимым образом.

Ключевые слова: мировоззрение, мышление, духовность, воспитание молодёжи, творчество, образование, знание, развитие, эстетическое сознание, эстетический вкус, образовательный процесс, человеческий капитал, интеллект.

DEVELOPMENT OF CREATIVITY AND A NEW WORLD VIEW IN STUDENTS

This article discusses the issue of raising a healthy and comprehensively developed generation in our country, realizing creative and intellectual potential, and developing the worldview of young people. Also, the content and essence of scientific theories on improving creative ideas and a new worldview among young people, forming a creative personality, and creating creative products are carried out in a mutually compatible manner.

Key words: worldview, thinking, spirituality, youth education, creativity, education, knowledge, development, aesthetic consciousness, aesthetic taste, educational process, human capital, intelligence.

Kirish. Respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti hayotimizning barcha jahbalarida, xususan oliy ta’lim sohasida ham islohot olib borilishini taqozo etmoqda. Yangi O‘zbekistonda sog‘lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim va ustuvor vazifaga aylandi, rivojlanayotgan jamiyatimizning o‘z oldiga qo‘yan oljanob maqsadi – kelajagi buyuk davlatni barpo etish vazifasi shuni taqozo etadi. Darhaqiqat, davlatimizning bosh maqsadi ham kelajak avlodning istiqbolini ta’minalashga, zarur shart-sharoit yaratishga, ularni yetuk insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy yangilanishining muhim subyektlaridan bo‘lib, turmushida ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va taraqqiyotni harakatga keltirishda muhim rol o‘ynaydi, ularning ushbu mas’uliyatlari vazifani bajarishlari va erkin rivojlanishlari, ijodiy buniyodkorlik faoliyatini amalga oshirishlari uchun Yangi O‘zbekistonda qulay imkoniyatlar yaratilgan va bu borada katta amaliy ishlar qilinmoqda. Mamlakatimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi yoshlarning har tomonlama salohiyati va yetukligiga bog‘liq.

Mamlakatimizda ijtimoiy institut bo‘lgan oliy ta’lim jamiyatning rivoji va farovonligi uchun ziar maskan hisoblanib, nafaqat barqaror va ustun bo‘lishi, balki tez o‘zgarayotgan va kutilmagan globallashtirilgan jamiyatda muammolarni hal etish uchun doimiy rivojlanishi lozim. Shu sababli professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va bo‘lajak mutaxassislardan ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida, shuningdek ushbu jarayonning barcha sohalarida kreativ g‘oyalar va innovatsiyalar kutilmoqda. Oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasini xalqaro maydonda e’tirof etish, zamonaviy ta’limning

sifat jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali tadqiqotlarni yangi bosqichga ko‘tarish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limning zamonaviylashuvi o‘qitishda kreativ yondashuv bilan belgilanib, u bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish xususiyatini o‘zgartiradi, o‘zlashtirilayotgan fanlar mazmunini rivojlantirish, zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash jarayonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlash, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarini qo‘llash ko‘nikmalariga ega, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, yangi metodika asosida o‘qitishni tashkil etish, ilg‘or ta’lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalardan tashkil qilish orqali ta’lim sohasini yanada takomillashtirish borasida tizimli tadbirlar belgilab berilgan.

Asosiy qism. Jamiyat qanday bo‘lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblangan inson kapitali ham unga mos bo‘ladi. Inson kapitali rivoji yoshlarning dunyoqarashi, ongi, odob-axloqi, ma’naviyati, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog‘liq. Inson aql-idrok sohibi bo‘lgani bois, real dunyodagi voqealarni tushunadi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyonи boshqaradi. Inson kapitalining yuksalishiga uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitda ro‘y berayotgan jamiki voqealar ta’sir ko‘rsatadi.

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da inson faktori, inson omili va inson kapitali xususidagi sharhlar «inson» va «omil» so‘zlariga bag‘ishlangan izohlarda, afsuski, mayjud emas [3]. Ammo, bu so‘zlar hamda ish kuchi, inson faktori, inson omili birikmalarining tilimizda amaliy qo‘llanilish an‘analariga tayanib, ularning anglatgan ma’nolari xususida mulohaza yuritish mumkin.

Insonning intellektual va amaliy salohiyati, dunyoqarashini rivojlantirishning ahamiyati hamda inson kapitali konsepsiyasining o‘rtaga kelishida ilk tamal toshlarini qo‘yan siyosiy iqtisod fanining asoschisi A. Smit edi. U insonni ijtimoiy boylikning bir qismi va ishlab chiqarishning pirovard maqsadi, deb bilar edi [4]. XIX asr oxirida boshqa bir mutafakkir A. Marshall esa boylik to‘plashni inson taraqqiyoti bilan bevosita bog‘lab quyidagicha tushuntirgan edi: «Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish bu faqat inson hayotini ta’minalash, uning ehtiyojlarini qondirish va uning jismoniy, aqliy va ma’naviy imkoniyatlarini o‘stirish uchundir. Ammo insonning o‘zi bu boylikni ishlab chiqarishning asosiy vositasidir, bu boylikning pirovard maqsadi ham insondir» [5].

Bugungi kunda ta’lim yoshlarning dunyoqarashi va o‘z-o‘zini anglashiga, insoniy potensialini va qobiliyatlarini ro‘yogga chiqarishida asosiy vosita bo‘lib bormoqda. O‘z davrida ulug‘ rus kimyogar-olimi D.I.Mendeleyev «Ta’lim insonning sarflagan vaqt va mehnati evaziga orttirgan insoniy donoligi va bebafo kapitalidir. Haqiqiy o‘qimishli kishi qachonki uning bilimlari va g‘oyalaraiga jamiyatning ehtiyoji mavjud bo‘lganida o‘z o‘rnini topadi, aks holda u ortiqchadir», deb yozgan edi. O‘qimishli, ziyoli kishilarning kapitali haqiqatan ham ularning olgan ta’limi – orttirgan bilim va ko‘nikmalaridir[4].

Ijodiy yoki kreativ shaxs falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlarning eng murakkab muammolaridan biridir. Qadim zamonlardan buyon ijod jarayoni va kreativ shaxs faylasuflar Aflatun, Arastu, I. Kant, F. Shelling va boshqa buyuk olimlar e’tiborini tortdi. Kreativlikni, uning shakllanishi va rivojlanishi muammolarini o‘rganishning asoschilari g‘arb olimlar, jumladan mashhur asarlarning aksariyati xorijiy tadqiqotchilar F.Baron, D.Gilford, E.P.Torrens, S.Mednik, K.Rojers, J.Renzulli, R.Sternberg, J.Taylor va bir qator olimlar nomlari bilan bog‘liq. Ular ijod hodisasini shaxsiy kontekstda, ijod jarayoni va mahsuli nuqtai nazaridan, uning aql bilan bog‘liqligida, kreativlikda diagnostika qilish masalalarini ko‘rib chiqdilar.

Dunyoqarash – bu, avvalo, inson o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir.

Dunyoqarash – yoshlarning ichki dunyosini bilmay borliqdagi go‘zallikni idrok etish, tushunish qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, dunyo go‘zalligi to‘g‘risida his – tuyg‘ular, tasavvur va fikrlarini tarbiyalaydi va takomillashtiradi. Yoshlarda dunyoqarashni rivojlantirish orqali har tomonlama keng estetik did rivojlanadi, ularni yovuzlikka nafrat ko‘zi bilan qarash, go‘zallikni idrok qilishga undaydi[6].

Shaxs dunyoqarash asosida o‘zini, voqelikni anglaydi, borliqqa munosabat bildiradi, shuning asosida jamiyatdagi o‘z o‘rnini bilib oladi, o‘zlashtirilgan bilimlari asosida o‘z maqsadini, shaxsiy va ijtimoiy mavqeini belgilaydi. Bu esa hozirgi Yangi O‘zbekistonda kamol topayotgan yoshlarga xos xususiyatning shakllanishi, unda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ularni asrab-avaylash va takomillashib borishiga amaliy yordam berish ko‘nikmalarini shakllanishi uchun zarur holdir.

Inson hamisha dunyoning sir – sanoatlarini anglab yetishga intiladi. O‘zicha nimalarnidir yaratadi, quradi, buzadi. Ularning mukammallik darajasi esa yaratuvchi inson ilmiga bog‘liqdir. Dunyoqarash tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik

qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Tabiat va jamiyatdagi mavjud narsalarga, voqealarga, hodisalarga nazar tashlasak, ularning barchasida ajib mukammallik, mutanosiblik, latofat, nafislik mujassamlashganligining guvohi bo‘lamiz, bularning barchasi insonni zavqlantirishga, unga orom va ma’naviy kuch baxsh etishiga sabab bo‘ladi [5].

Globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta, chunki dunyoda har daqiqada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar shuni taqozo qilmoqda, shu munosabat bilan turli soha olimlarining e’tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ qoboliyatini rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Kreativlik qobiliyati “Xudoning in’omi” va shuning uchun kreativlikni o‘rgatish mumkin emas degan ancha keng tarqalgan fikrdan farqli o‘laroq, M.M. Zinovkina boshqacha yondasuvga ishora qiladi. Innovatsiya va ixtiolar tarixini o‘rganish, atoqli olim va ixtirochilarning ijodiy hayoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasi yuqori fundamental bilimlar bilan bir qatorda maxsus bilimlar ombori yoki algoritmik fikrlash, shuningdek, ma’lum bilimlar, shu jumladan evristik usullar va texnikalarga ega bo‘lishgan [2].

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaliv sharoitda yoshlarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Yoshlarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lish uning shaxsiy qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvatini, kasbiy faoliyatni sifatlari, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Oliy ta’lim tizimida o‘qish faoliyatida bo‘lgan yoshlarni kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarida an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalar haqida fikr yuritishi, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi [8].

Ijtimoiy taraqqiyot jarayoni har bir davr uchun o‘ziga xos va o‘ziga mos zamonaliv tafakkurga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalab, yangicha dunyoqarash asosida jamiyat rivojiga turtki beruvchi yoshlarni voyaga yetkazib beradi. Bu jarayonda xalqning istiqbolini yuqori cho‘qqiga olib chiquvchi falsafiy dunyoqarash tizimida estetik dunyoqarashning roli kuchli bo‘lib, millat taqdiri, Vatan ravnaqi, yurt farovonligi yo‘lida o‘zgacha qiyofa kasb etuvchi davlatlar shakllanib boradi. Ularning harakatlantiruvchi kuchi sifatida shaxs va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi asosiy rol o‘ynashi lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1].

Insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning rivojlanishi yoshlarning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan yangicha dunyoqarash yoshlarni qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijodiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Yoshlarning ongida yuksak ma’naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalqimizning farovonlik yo‘lida fidokorona mehnat qilish, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo‘lish, o‘zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo‘lish kabi xislatlarni uyg‘otish hozirgi paytda muhim vazifalardan biri bo‘lmoqda. Yoshlarning tevarak atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida qancha ma’lumotlarga, bilimga ega bo‘lsa, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo‘ladi. Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u yoshlarni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholashi hamdir[7].

Dunyoqarash jamiyatning o‘zgarishi bilan bir qatorda u ham doimo rivojlanib, mazmunan o‘zgarib turadi. Umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizga asoslangan, hozirgi davr talabiga javob beradigan yangi tizim yaratilmoqda va uning asosida yoshlarda yangicha tafakkur, dunyoqarash shakllanib rivojlanmoqda. Dunyoqarash yoshlarning amaliy faoliyat yo‘nalishini belgilab beradigan qudratli ma’naviy kuchdir, shuning uchun ham hozirgi vaqtida jamiyat a’zolari, birinchi navbatda yoshlarni qalbini egallash, uning dunyoqarashiga muayyan maqsadlarni ko‘zlab ta’sir etish avj olib bormoqda[4]. Shunday ekan, biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosini, yangicha dunyoqarashi, ma’naviy kamoloti uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur. Yoshlarning aqliy va ruhiy boyligi, yuksak intilish va faolligi ko‘p jihatdan ma’naviy, jumladan, kreativ g‘oyalar va badiiy omillarga bog‘liqdir. Ularda ushbu omillarga asoslangan dunyoqarashni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, yoshlarda kreativ g‘oyalalar va yangicha dunyoqarashni shakllantirish masalasi jamiyat va oliv ta’lim muassasalarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi va quyidagilar tavsiya etiladi:

- globallashuv jarayonida yoshlarda aqliy mehnat, yuksak innovatsion tafakkur, dunyoqarashni rivojlantirish;
- yoshlarda kreativlik va yangicha dunyoqarashni bugungi ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyot talablari asosida rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratish;
- ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar asosida yoshlarda aql-zakovat, ilmu-hikmat, o‘z kasbiga qiziqishni ifodalovchi dunyoqarash tushunchalarini ifodalanishiga e’tibor qaratish;
- yoshlarning yuksak ijodiy qobiliyatlarini va ularning muayyan faoliyat turidagi ahamiyati ta’lim muassasasidagi yuqori iqtisodiy faoliik bilan hamkorlikda tashkil etish;
- yoshlarning yangicha dunyoqarash va kreativ qobiliyatlarini namoyish etishi uning faoliyat sohasidagi ish o‘rinni bo‘yicha eng jozibador bo‘lgan ishlarga keng yo‘l ochishga yordam beradi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan misollardan korinadiki, yoshlarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalalar, kontseptsiyalar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli- faoliyatli yondoshuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Kreativlik va yangicha dunyoqarash deganda talabalar boshqalarga taqlid qilmasdan, o‘zları tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar degan fikr yetakchilik qiladi. Kreativlik xususida gap borar ekan, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg‘ularida, xatti-harakatida muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi hamda iqtidorlikning muhim omili sifatida aks etadi. Chunki har bir inson ham o‘z dunyoqarashi va bilimiga asoslangan holatda faol bo‘lishga intiladi, qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, talabalarning diqqat-e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi.

Pixiologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tabiat tomonidan u yoki bu darajada berilgan ijodiy faoliyat qobiliyatiga qaramasdan, faqat maqsadli tayyorgarlik shaxsning ijodiy fazilatlarini yuqori darajada rivojlantirishni ta’minlaydi. Shaxsning kreativligini rivojlantirish jamiyat farovonligining eng muhim manbalari va ko‘rsatkichlaridan biridir. Bo‘lajak mutaxassisning kreativligini shakllantirish oliv ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga zamонавиy yondashuvda asosiy talablardan biri bo‘lib, bu birinchi navbatda jamiyat talablari bilan bog‘liqdir. Bunday shaxsni shakllantirishda uning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga, faol hayotiy pozitsiyaga munosabatni rivojlantirishga, yoshlarning turli xil amaliy faoliyat turlarini o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan shart-sharoitlarni yaratish ustuvor vazifalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz”.- T.:”O‘zbekiston”, 2016 - 16 b.
2. Zinovkina M. M. NFTM-TRIZ: Creative education of the XXI century (Theory and practice): Monograph. M., 2007.].
3. Falsafa: (O‘quv qo‘llanma) E.Y. Yusupovning umumiyligi tahriri ostida. - T.:”Sharq”, 1999 - 496 b.
4. Hasanova Z.D. “Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida axloqiy - estetik dunyoqarashni rivojlantirish”. B.:”Buxoro”, 2016.
5. Samiyeva S. Yangi o‘zbekistonda bo‘lajak mutaxassislar kreativ qobiliyatini tarbiyalashning zamонавиy yo‘nalishlari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
6. Samiyeva Sh., Narzulloyeva F. Oliy talimda strategik fikrlash va kreativ boshqarish asosida talimni tashkil etishning muhim yonalishlari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.
7. Inson taraqqiyoti. Darslik. /I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: Iqtisodiyot, 2013. – B. 55; Mualliflar bu jadvalni o‘z navbatida quyidagi manbadan olganiga ishorat qiladilar: Odegov Y.G. Upravleniye personalom v strukturno-logicheskix sxemax. -M.: Akademicheskiy proyekt. 2005. – S.348. Yana qarang: Abdurahmonov Q.X.. Inson taraqqiyoti. (Darslik) T.: - Fan va texnologiya, 2013. -475 b.
7. Самиева Ш. Х. Важные направления инновационной подготовки молодёжи к духовно-просветительской деятельности //Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С. 153-156.

8. Авазбоев Атажан Исмоилович, Пардабоев Жасур Эшбоевич Талабаларда креативлик сифатларини ривожлантиришнинг самарали йўллари // Современное образование (Узбекистан). 2018. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarda-kreativlik-sifatlarini-rivozhlantirishning-samarali-yllari> (дата обращения: 29.05.2023).